BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARSNI TASHKIL ETISH TARTIBI

Muxtorova Mohinur
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda darsni tashkil etish jarayonlarini samarali rejalashtirish va amalga oshirish usullariga bag‘ishlangan. Unda dars jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarinihisobga olgan holda turli metod va usullarni qo‘llash zarurligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun dars jarayonida bolalarning qiziqishlarini orttirish, ularni faol ishtirok etishiga jalb etish va ularning bilimini oshirish yo‘llari aytib o‘tilgan. Ushbu maqola pedagoglar va boshlangich sinflar o‘qituvchilari uchun dars jarayonini samarali tashkil etishda amaliy yordam berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich talim, darsni tashkil etish, pedagogik metod, o‘quv jarayoni, faol o‘qitish usullari, ta'lim samaradorligi, o‘quvchilarning yoshxususiyatlari, darsni rejalashtirish, o‘quvchilarning qiziqishinioshirish, pedagogik faoliyat.

Abstract: this article is devoted to the methods of effective planning and implementation of the processes of organizing the lesson in primary classes. It indicates the need to apply various methods and techniques taking into account the age characteristics of students in the course of the lesson. Also, for teachers, ways are mentioned in the course of the lesson to gain children's interests, attract them to their active participation and increase their knowledge. This article can provide practical assistance in the effective organization of the course Process for educators and teachers of beginner classes.

Keywords: beginner training, lesson organization, pedagogical method, educational process, methods of active teaching, educational efficiency, age characteristics of students, lesson planning, increasing the interest of students, pedagogical activity.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etisho‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy masala hisoblandi. Bolalar maktabga ilk qadam qo‘yganda, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari, dunyoqarashi,bilim olishga bo‘lgan ijobiy qarashlari asosiy ahamiyatga egadir. Bolalar maktabga kelgandan boshlab ular yangi hayotga qadam qo‘yadi. O‘qituvchi bolalarning yangi qadam qo‘yishida asosiy tayanch hisoblanadi. Shuning uchun, boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi darsni to‘g‘ri tashkil qilishi kerak.

O‘qituvchi birinchi navbatda oldiga maqsad qo‘yishi lozim. Shundagina darsni samarali tashkil qila oladi. Bu maqsad shundan ibortki: bunda bolalarning dunyo qarashini kengaytirish, ilk qadam qo‘yishida to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, bolalarning mavzularni o‘zlashtirishiga asos yaratish, kelajakda o‘quv faoliyati uchun zarur bolgan ko‘nikmalarni shakillantirish, odob va tarbiyani o‘rgatib o‘tish kabi maqsadlarni qo‘yishi lozim. Darsni tashkil etishi uchun avvalambor o‘quvchilarga qulay va samimiy muhit yaratish talimning samaradorligini oshiradi. Boshlang‘ich

sinf o‘quvchilari diqqatlarini uzoq vaqt davomida bir joyga toplashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkun .Shu sababli o‘qituvchi dars davomida bolalarni dam olishga chaqirish, interfaol usullarni qo‘llash muhimdir. Darslarda rangli ko‘rgazmalar, audio va vidio materiallardan foydalanish bollalarning darsga bolgan qiziqishlarini oshiradi. Har bir bolaning qobiliyatlarini o‘rganish ham kerakdir. Chunki har bir bola bir biridan o‘qish tezligi, anglab olish qolilyati, tushunish darajasi va boshqa qobilyatlari orqali ajralib turadi. Shu sababli darsda individual yondashuvni qo‘llash, o‘quvchilarga o‘zlarini erkin his qilish, imkonini beradi. Guruhiy ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va birgalikda hamjihatlikda yechim topish kabi ko‘nikmalarni egallaydi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, boshlanlich sinf darslarini tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlarni qollash, o‘quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, rolli o‘yinlar, savol-javoblar, "Aqliy hujum" kabi metodlar bolalarning darsga bolgan qiziqishini kuchaytiradi. Shuningdek, hozirgi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quv materiallarini yanada qiziqarli va tushunarli bo‘lishini taminlaydi. Darsning yakuniy qismida o‘tilgan mavzularni takrorlash va o‘quvchilarning qay darajada mavzuni tushunganini bilib, shunga qarab o‘quvchilarni rag‘batlantirish, baholash kerak. Masalan, savol-javob metodi orqali o‘quvchilarning qay darajada mavzuni o‘zlashtirganligini bilib olish va xato bergan savollarini to‘ldirib mavzuni yana bir bor eslatib o‘tish mumkun.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda darsni tashkil etishning asosiy maqsadi bolalarni o‘qishga bilim olishga qiziqtirish va ular uchun qulay ijobiy muhit yaratishdir. Dars jarayonida o‘quvchilarning yoshiga mos tarzda moslashtirish, o‘quv materiallarini qiziqarli shaklda taqdim etish va o‘z-o‘zini anglash imkoniyatini yaratish orqali bollalarda mustahkam bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish mumkun. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari ijobiy muhit yaratishda muhim hisoblanadi. O‘qituvchi dars jarayonini to‘g‘ri boshqarish va o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishi lozim, bu esa ta'lim sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova M. "Boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini tashkil etish". Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2019

2. Saidov U.(2020)." Pedagogik texnalogiyalar va o‘qitish metodlari". Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiya nashriyoti, 2020.

3. Mahmudov K va Karimova L. (2022). "Boshlangich ta’limda pedagogik yondashuvlarning samaradorligi". Toshkent: Ta'lim va fan jurnali, 4(1), 45-50.